

UDK:619.616.999.192.616

## SIGIRLARDA PERSISTENT SARIQ TANA KASALLIGINI DAVOLASHDA FERTADIN PREPARATINING SAMARASI

Tayanch doktorant. **Suvanov S.A.**,  
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Ilmiy rahbar. **Qo'ldashev. O.U**  
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

### ANNOTASIYA

*Ushbu maqolada bugungi kunda fermer xo'jaliklari sharoitida parvarishlanayotgan mahsuldor sigirlarda persistent sariq tana tufayli yo'zaga keladigan bepushtliklarni davolashda fertadin preparatining samarasi bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** bachadon, tuxumdon, qin, jinsiy yo'llar, bachadon shoxlari, endometrit, matsion, ratsion*

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье описывается эффективность препарата фертадин в лечении бесплодия, вызванного персистентным желтым телом, у продуктивных коров, которых сегодня разводят в сельскохозяйственных условиях.*

**Kirish.** Davlatimiz agrar siyosatining asosiy jabhalaridan biri Respublikamizda chorvachilikni xususiy mulkchilik asosida jadal rivojlantirish va rentabelli sohalardan biriga aylantirish, aholi turmush darajasini oshirish, ichki bozorni go'sht, sut kabi

hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirishga katta e'tibor qaratilishi hisoblanadi.

Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini yanada yaxshiroq qondirish davlatimiz agrar siyosatining asosiy jabhalaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari va vazirlar mahkamasining qarorlarida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish iqtisodiy hamda siyosiy masala deb ta'kidlanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida qoramolchilik xo'jaliklarida parvarishlanayotgan yo'qori mahsuldor sigirlarda patologik persistent sariq tana tufayli qoramollar bosh sonini ko'paytirish va reja asosida olinadigan buzoq bosh sonini oshirishga to'sqin bo'lmoqda.

D.V.Mixaylov ma'lumotlariga (2006) ko'ra, sigirlarda jinsiy a'zolarining kasalliklari boshqa tizim kasalliklariga nisbatan ko'p qayd etilib, umumiy kasalliklarning o'rtacha 23,2% - 42,% ni tashkil etadi. Hayvonlar bog'lamasdan parvarishlanganda yo'ldoshni ushlanib qolishini 3,9%, bachadon subinvolyutsiyasini - 3,9%, endometritlarni - 7,6%, tuxumdonlarning kasalliklarini - 12,7% kamayishi, abortlar sonining esa 2,6% ga ortishi qayd etilgan.

E.S.Sedleskaya, G.P.Dyulger (2012) ma'lumotlariga ko'ra, tuxumdonlar gipofunksiyasi har uchta yangi to'qqan sigirda (35,4%), birinchi marta yangi to'qqan 40-60 % sigirda uchraydi. Sigirlarda tuxumdonlar funksiyasining buzilishlari tarqalish darajasiga ko'ra yoshiga bog'liq bo'ladi. Yoshi katta sigirlarga nisbatan yangi to'qqan sigirlarda ikki marta ko'proq ro'yhatga olingan.

S.G.Kondruchina (2004) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi keng tarqalgan bo'lib (15,1-17,7% ) ni tashkil etadi. Doimiy sariq tana 2,75 - 4,0% qayd etilgan va 0,8 - 1,6% podada tuxumdon kistalariga to'g'ri keladi.

**Tadqiqotlar obekti va usullari.** Ilmiy tadqiqotlarning tajribalar qismi mahsuldor sigirlarda patologik persistent sariq tana tufayli yuzaga keladigan bepustliklarning oldini olishda va profilaktika maqsadida fertadin preparatining sigirlar kuyga kelishini va reproduktiv faoliyatini stimullashni o'rganish maqsadida Samarqand viloyati

Samarqand tumani “Chorva sur servis” fermer xo‘jaligiga qarashli chetdan keltirilgan golishtin zotiga mansub 15 bosh, 2-tug‘um tug‘ruqdan 90 kundan oshgan sog‘in sigirlarda olib borildi.

Tajribalar uchun har birida 5 boshdan sigirlar bo‘lgan 3 ta guruh tashkil qilindi. Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarga fertadin preparati 2 ml, megavit 15 ml muskulga yo‘borildi va rektalni to‘g‘ri ichak orqali 4-5 daqiqa masaj qilindi, ikkinchi tajriba guruhida 4-5 daqiqa masaj va megavit preparati 15 ml qo‘llanildi, uchinchi tajriba guruhidagi sigirlar rektalni to‘g‘ri ichak orqali 4-5 daqiqa masaj qilindi.



**Oilingan natijalar tahlili.** Tajribada bo‘lgan sigirlardan I tajriba guruhidagi sigirlarda fertadin 2 ml, megavit 15 ml va masaj qilingandan sung tajribaning 7-10 kunlari tajribadagi sigirlar kuyga keldi va urug‘lantirildi.

II tajriba guruhidagi sigirlarga megavit 15 ml va masaj qilingandan sung tajribaning 10-14 kunlari 3 bosh sigirlarda kuyikish ko‘zatildi.

Nazorat guruhidagi faqat masaj qilingan sigirlar 10 kundan sung 2 bosh sigirda kuyikish ko‘zatildi.

Otalantirilgandan 1 oy utib tajribadagi sigirlar ultratovushli tekshirish aparati yordamida bug'ozligi tekshirildi va otalanish % aniqlandi.

Guruhlar	Sigirlar bosh soni	Qo'llanilgan vositalar	Kuyga kelgan sigirlar		Otalangan sigirlar	
I tajriba	5	Fertadin 2 ml muskulga Masaj 4-5 daqiqa Megavit 15 ml	5	100%	4	80%
II tajriba	5	4-5daqiqa masaj va megavit preparati 15 ml qo'llanildi	3	60%	2	40%
Nazorat	5	4-5daqiqa masaj qilindi.	2	40%	1	20%

**Xulosa.** Mahsuldor sigirlarda persistent sariq tan tufayli yuzaga keladigan bepushlik oqibatida qoramollar qisr qolmoqda va mahsuldorlik keskin pasaymoqda.

Fermer xo'jaliklar sharoitida parvarishlanayotgan mahsuldor sigirlarda akusher ginekologik kasalliklar va ular oqibatida yuzaga keladigan bepushtliklar salmoqli urin egallamoqda.

Ushbu kasallikni davolashda zamonaviy usullardan foydalangan holda qoramollar bosh sonini ko'paytirish bugungi kun talabi.

Persistent sariq tanani davolashda fertadin gormonal preparati yo'qori samaradorlikka ega va bepushliklarni oldini olish va davolashda keng tasr doirasiga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Қўлдошев О.У. Муртазин Б.Ф., Бобоев Т.М. Лечения и профилактика акушерско-гинекологических заболеваний коров полимерными соединениями антисептических препаратов. То'rtinchi xalqaro ilmiy konferensiya O'zVITI. Samarqand 2011 yil.
2. Sh.B.Ata-Kurbanov, B.M.Eshbo'riyev. Hayvonlar qo'payish biotexnikasi Sam QXI. Samarqand 2012 y.
3. Qo'ldoshev O.U., Mavlanov S.I. Sigirlar qisir qolishining oldini olish. Zooveterinariya № 9. s 19-20. 2012 y.
4. Qo'ldoshev O.U., Mavlanov S.I. Sigirlar akusher-ginekologik kasalliklarini davolash. Zooveterinariya № 10.s 33-34. 2012 y.
5. Qo'ldoshev O.U. Sigirlarning qisir qolishini davolash va oldini olish chora-tadbirlari. Zooveterinariya.- Toshkent. 2016 yil.- № 12.- B 31-33.
6. Qo'ldoshev O.U. Mollar pushtsizligining oldini olishda biologik preparatlarning ahamiyati .
7. Qo'ldoshev O.U., Isayev M.T., Ochilov J.N., Xamraqulov N.Sh. Sigirlarning reproduktiv faolyatiga va jinsiy kasalliklarini davolashda pasentin preparatini qo'llash. Veterinariya meditsinasi.- Toshkent. 2019 yil. № 4.,5.-B 33-34
8. Дюльгер, Г.П. Гормональные препараты, применяемые в ветеринарном акушерстве, гинекологии и андрологии/Г.П. Дюльгер //Ветеринария с.-х. животных.- 2009.- №11.- С.41-48.
9. Дюльгер, Г.П. Терапевтическая эффективность овулина при гипофункции яичников у коров/ Г.П. Дюльгер, Е.С. Седлецкая // Российский ветеринарный журнал.-2012.-№4. - С.15-17.
10. Землянкин, В.В. Коррекция репродуктивной функции у коров с фолликулярными кистами яичников: Автореф. дис... канд. вет. наук.: - Саратов, 2004.-22 с.
11. Кондручина, С.Г. Распространение функциональных нарушений яичников у коров при круглогодичном стойловом содержании / С.Г. Кондручина, А.Ю. Сергеев // Труды Чувашской государственной сельскохозяйственной академии: Том XIX. - Чебоксары, 2004. - С.174-176.
12. Полянцев, Н.И. Практические советы по борьбе с яловостью коров/Н.И. Полянцев.- М.: Россельхозиздат, 1978.-191с. Полянцев, Н.И. Воспроизводство в промышленном животноводстве/Н.И.Полянцев. - М.: Росагропромиздат, 1990.- 164 с.